



UDK: 378.147:811.111

Sardorbek ABDUG'OFFOROV,

Tayanch doktorant. Namangan davlat chet tillari instituti, Namangan, O'zbekiston

E-mail: sardorbekabdugofforov@gmail.com, ORCID: 0009-0003-1241-0488

PhD N.Rashidova taqrizi asosida

DIAGNOSING THE DEVELOPMENT LEVEL OF WRITING COMPETENCE OF PROSPECTIVE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Annotation

The article examines the diagnostic assessment of writing competence among prospective English teachers. Using document, comparative, rubric-based, and genre-oriented analyses, it identifies common difficulties in grammar, coherence, vocabulary, genre awareness, argumentation, academic style, source use, plagiarism, and responsible AI use. Based on these findings, the study proposes an eight-criterion diagnostic model, an error typology, and four competence levels. The model evaluates both the final written product and the processes of planning, drafting, receiving feedback, revising, and maintaining academic integrity.

Key words: Writing competence, diagnostics, prospective English language teacher, academic writing, coherence, cohesion, genre awareness, plagiarism, artificial intelligence.

ДИАГНОСТИКА УРОВНЯ РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье рассматривается диагностика письменной компетенции будущих учителей английского языка. На основе анализа документов, сопоставления учебных программ, аналитических рубрик и жанров письменных работ выявлены основные трудности студентов: грамматические ошибки, нарушения когерентности и когезии, ограниченный словарный запас, недостаточная жанровая осведомленность, слабая аргументация, ошибки в использовании источников, плагиат и некорректное применение искусственного интеллекта. Предложенная диагностическая модель включает восемь критериев, типологию ошибок и четыре уровня развития компетенции. Она предусматривает оценивание не только итогового текста, но и процессов планирования, написания черновика, получения обратной связи, редактирования и соблюдения академической добросовестности.

Ключевые слова: Письменная компетенция, диагностика, будущий учитель английского языка, академическое письмо, coherence, cohesion, жанровая осведомленность, плагиат, искусственный интеллект.

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING YOZUV KOMPETENSIYASI RIVOJLANGANLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini diagnostika qilish masalasi o'rganilgan. Hujjatlar, o'quv dasturlari, analitik rubrikalar va yozma ishlar tahlili asosida grammatik aniqlik, matn bog'liqligi, leksik resurs, janrni anglash, argumentatsiya, akademik uslub, manbalardan foydalanish, plagiat va SI vositalarini qo'llash bilan bog'liq muammolar aniqlangan. Tadqiqotda sakkiz mezonli diagnostik model, xatolar tipologiyasi va yozuv kompetensiyasining to'rt rivojlanish darajasi taklif etilgan. Model yakuniy matn bilan birga rejalashtirish, qoralama yozish, qayta aloqa olish, matnni takomillashtirish va akademik halollikni ham baholashni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Yozuv kompetensiyasi, diagnostika, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, akademik yozuv, coherence, cohesion, genre awareness, plagiarism, sun'iy intellekt.

Kirish. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish sifati pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar bo'lajak ingliz tili o'qituvchisidan faqat til tizimini bilishni emas, balki o'quvchining yozma nutqini shakllantirish, baholash va metodik jihatdan rivojlantirish kompetensiyasini ham talab qiladi[1]. Shu ma'noda yozuv kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchi kasbiy tayyorgarligining markaziy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yozuv kompetensiyasi grammatik to'g'rilik bilan cheklanmay, fikrni mantiqiy tashkil etish, matn bog'liqligini ta'minlash, janr va auditoriyani hisobga olish, dalillash, manbalardan foydalanish hamda matnni tanqidiy qayta ko'rib

chiqishni qamrab oladi. Davlat ta'lim standartida til kompetensiyalarining bosqichma-bosqich rivojlanishi belgilangan bo'lib [3], bo'lajak o'qituvchi ularni amaliy, akademik va kasbiy yozuvda namoyon etishi zarur.

Tahlillar talabalarida mavzuni yoritish, tezisni aniq ifodalash, paragraf tuzish, fikrni dalillar bilan asoslash, bog'lovchi vositalardan foydalanish va janrlarni farqlashda qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Bu holat til bilimining yetishmasligi bilan birga, diagnostik mezonlar, qayta aloqa va matnni takomillashtirish bosqichlarining izchil tashkil etilmaganligi bilan ham bog'liq.

Raqamli ta'lim muhitida bu masala yanada murakkablashmoqda. Tarjima dasturlari, grammatik tekshiruvchilar va generativ sun'iy intellekt vositalari talabalar yozuviga yordam berishi mumkin, biroq ular matnni to'liq

avtomatik yaratish, manbani tekshirmaslik, sun'iy ravishda akademik ko'rinadigan, ammo mazmunan zaif matn topshirish, plagiat va mualliflik mas'uliyatini xiralashtirish kabi xavflarni ham keltirib chiqaradi [15, 16]. Shuning uchun diagnostika jarayoni grammatik xatolarni sanash bilan cheklanmasdan, matnning kommunikativ, janriy, akademik va axloqiy sifatlarini ham baholashi lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasi rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish uchun tahliliy asos yaratish, mavjud holatdagi asosiy muammolarni tasniflash va amaliy baholash mezonlarini taklif etishdan iborat. Maqola pedagogika yo'nalishidagi ilmiy izlanish sifatida yozuvni o'rgatish va baholashni yagona metodik tizimda ko'rishga urinadi.

Adabiyotlar tahlili. Yozuv rejalashtirish, g'oya yaratish, matn tuzish va qayta ko'rib chiqish o'zaro almashinib turadigan murakkab kognitiv jarayondir [5]. Shu sababli yakuniy matndagi kamchiliklar grammatik xatolargina emas, balki rejalashtirish, dalil tanlash yoki tahrir bosqichidagi muammolar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikkinchi tilda yozish janr, auditoriya va kommunikativ kontekstni anglashni talab qiladi [6]. Uning rivojlanishida aniq mezon va dalillarga asoslangan, matnni takomillashtirishga yo'naltirilgan qayta aloqa muhim o'rin tutadi [7].

Yozuvni rivojlantirishda strategik rejalashtirish, matnni qayta ishlash va hamkorlikda yozish samarali usullar hisoblanadi [8]. Bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligida yozuv metodikasi kurslari, amaliy mashg'ulotlar, matn namunalari, yozuv ustaxonalari va portfoliolardan foydalanish ularning yozish, matnni diagnostika qilish hamda yozuvni o'rgatish kompetensiyalarini shakllantiradi [9].

Janrga asoslangan yondashuv matnning maqsadi, tuzilishi va til xususiyatlarini anglashga xizmat qiladi. Model matnni tahlil qilish, mustaqil yozish, tengdoshlar tahlili va refleksiya janriy bilimni rivojlantiradi [10]. Uni vazifaga asoslangan ta'lim bilan uyg'unlashtirish esa yozuvni real kommunikativ maqsadga yaqinlashtiradi [11]. Shu bois janr talablarini diagnostikaning alohida mezon sifatida baholash zarur.

Portfolio va jarayonga asoslangan yozuv matnni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq qayta ko'rib chiqish jarayoni aniq mezon, rubrika va qayta aloqa bilan boshqarilmasa, talabalar tavsiyalardan yetarlicha foydalanmasligi mumkin [12].

Katta guruhlar individual qayta aloqa va xolis baholash imkoniyatini cheklaydi [13]. Onlayn ta'limda esa texnologik tengsizlik, vaqt tanqisligi va plagiat muammolari diagnostikani yanada murakkablashtiradi [14]. Shu bois o'z-o'zini baholash, tengdoshlar qayta aloqasi va raqamli vositalardan oqilona foydalanish zarur.

Mahalliy ta'lim dasturlarida jarayonli yozuv, esse, qayta ifodalash, manbalarni rasmiylashtirish, plagiatdan saqlanish va portfolio kabi mavzular qamrab olingan [17]. Biroq ularni yagona diagnostik rubrika, qayta aloqa va matnni takomillashtirish jarayoni hamda akademik halollik mezonlari bilan bog'lash ehtiyoji saqlanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tavsifiy-diagnostik va tahliliy yondashuv asosida olib borildi. Nazariy manbalar, mahalliy fan dasturlari, baholash mezonlari va talabalar yozuvdagi tipik muammolar qiyosiy o'rganildi. Tahlilda yakuniy matn bilan birga topshiriqni anglash, rejalashtirish, qoralama yaratish, dalillash, manbalardan foydalanish, qayta aloqa olish va matnni takomillashtirish jarayonlari ham hisobga olindi.

Yozuv kompetensiyasi sakkiz mezonli analitik rubrika asosida baholandi: topshiriqning bajarilishi va mazmun, grammatik aniqlik, leksik resurs, matnning mantiqiy

bog'liqligi, janrni anglash, argumentatsiya, akademik uslub va manbalardan foydalanish, shuningdek, akademik halollik va SI vositalarini mas'uliyatli qo'llash. Har bir mezon bo'yicha past, qoniqarli, yetarli va yuqori daraja indikatorlari belgilandi.

Diagnostik topshiriqlar argumentativ esse, qisqacha mazmun, manbaga asoslangan paragraf, rasmiy elektron xat, dars refleksiyasi va o'quvchi matni tahlilini qamrab oldi. Baholash dastlabki qoralamani tahlil qilish, tengdoshlar qayta aloqasi va o'z-o'zini baholash asosida matnni takomillashtirish hamda yakuniy variantni analitik rubrika yordamida baholash bosqichlarida amalga oshirildi.

SI vositalaridan fikr yaratish, reja tuzish, tilga oid tavsiyalarni tekshirish va tahrir qarorlarini asoslashda foydalanish baholandi. Bunda SI yordamini ochiq ko'rsatish, manbalarni tekshirish va mualliflik mas'uliyatini saqlash talab etildi [15]. Ushbu holatlar SI vositalaridan foydalanish deklaratsiyasi, og'zaki himoya va qoralamalar tarixini tahlil qilish orqali aniqlandi.

Natijalar va ularning tahlili. Tahlil yozuv kompetensiyasini baholashda o'quv dasturlari mazmunini talabalarining real yozma ishlari va ularni qayta ko'rib chiqish jarayoni bilan birgalikda o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Dasturlarda yozuv jarayoni, tengdoshlar qayta aloqasi, esse, plagiat va ilmiy maqola kabi mavzular mavjud bo'lsa-da, analitik baholash mezonlarining yetarlicha yoritilmaganligi subyektivlikka olib kelishi mumkin.

Talabalar ishlarida ega-kesim mosligi, zamon, artikl, predlog, so'z tartibi va tinish belgilariga oid takroriy xatolar uchraydi. Ularning ayrimlari ona tili ta'siri va kollokatsion bilimning yetishmasligi bilan bog'liq. Shu sababli diagnostikada xatoning tasodifiy yoki muntazam ekanligi grammatik jurnal orqali aniqlanib, maqsadli tahrir mashqlari tashkil etilishi lozim.

Matn bog'liqligidagi muammolar mavzuni ifodalovchi gapning yo'qligi, bir paragrafda bir nechta g'oyaning aralashishi va bog'lovchilarning sun'iy qo'llanishida namoyon bo'ladi. Bunda bog'lovchi vositalar sonidan ko'ra, fikrlar izchilligi va paragraf yaxlitligini baholash muhim. Paragraf xaritasi, teskari rejalashtirish va bog'liqlik mezonlari ushbu kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Leksik diagnostika umumiy so'zlarning takrorlanishi, noto'g'ri kollokatsiyalar va tarjima qilingan iboralarning kontekstga mosligini qamrab oladi. So'z tanlovi janr, uslub va kommunikativ maqsad asosida baholanib, akademik so'zlar banki hamda kollokatsiyalar daftari orqali rivojlantiriladi. Janrni anglashda esa talabaning esse, hisobot, taqriz, refleksiv matn, rasmiy xat va dars ishlanmasining maqsadi hamda tuzilishini farqlashi model matn tahlili asosida tekshiriladi.

Argumentatsiyadagi asosiy muammo da'vo, dalil va xulosa o'rtasidagi bog'lanishning zaifligidir. Uni aniqlashda argument xaritasi, "da'vo-dalil-izoh" jadvali va tengdoshlar savollaridan foydalaniladi. Akademik uslub va manbalar diagnostikasida esa qayta ifodalash, iqtibos keltirish, havolalarni rasmiylashtirish hamda muallif fikrini manba fikridan ajratish ko'nikmalari baholanadi.

SI yaratgan matnni o'zlashtirish, soxta manbalar va tekshirilmagan ma'lumotlardan foydalanish yangi diagnostik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday holatlarni aniqlashda plagiat tekshiruvi bilan cheklanmay, individual reja, qoralamalar tarixi, og'zaki himoya va SI vositalaridan foydalanish deklaratsiyasini ham hisobga olish zarur.

Mahalliy dasturlarda yozuv komponenti amaliy mashg'ulotlarning 40–60 foizini tashkil etadi. Uning ulushi NamDCHTIda I semestrda 40 foiz va II semestrda 60 foiz [17; 18], QDUda 40 va 53 foiz [20], NamDPIda esa I semestrda 53 foiz va III semestrda 57 foizdir [19]. Keyingi semestrlarda yozuvga ajratilgan vaqt ortib, paragraf va xatdan akademik

hamda kasbiy janrlarga o'tiladi. Biroq natijadorlik uchun qayta aloqa va matnni takomillashtirish bosqichlarini izchil tashkil etish talab etiladi.

Yozuv kompetensiyasi 100 ballik mezon asosida to'rt darajada baholanadi. Past darajada (0–30 ball) mavzu qisman ochiladi, gaplar o'rtasidagi bog'lanish zaif, grammatik xatolar ko'p va janr talablari yetarlicha anglanmaydi; shu sababli gap aniqqligi, mavzuni ifodalovchi gap va sodda paragraf tuzilishi ustida ishlash zarur. Qoniqarli darajada (31–55 ball) asosiy fikr mavjud bo'lsa-da, dalillash, matn bog'liqligi, leksik aniqlik va akademik uslubda kamchiliklar kuzatiladi. Bunda paragraf va argument xaritalari, leksik daftar hamda yo'naltirilgan tahrir mashqlari qo'llanadi.

Yetarli darajada (56–75 ball) talaba janrga mos matn tuzadi, xatolari cheklangan bo'ladi va qayta aloqa asosida matnni takomillashtira oladi. Keyingi bosqichda manbalardan foydalanish, qarshi dalil keltirish, uslubiy tahrir va tengdoshlar qayta aloqasi rivojlantiriladi. Yuqori darajada (76–100 ball) esa matn mantiqiy, dalillangan va akademik uslubga mos bo'lib, talaba o'z yozuv strategiyasini izohlay oladi. Bu darajada kasbiy yozuv, o'quvchi matnini tahlil qilish va baholash rubrikalarini ishlab chiqishga e'tibor qaratiladi.

Tavsiya etilgan darajalar umumiy baho qo'yishdan ko'ra, har bir mezon bo'yicha aniq rivojlantiruvchi qayta aloqa berishga xizmat qiladi. Diagnostik izohlar grammatikani umumiy baholash bilan cheklanmay, matn tuzilishi, bog'lanish vositalari va manbalarni qayta ifodalashdagi muammolarni ko'rsatishi zarur. Bo'lajak o'qituvchi o'z va boshqalarning yozma ishlarini metodik jihatdan tahlil qila olishi uchun diagnostikaga anonim matndagi xatolarni aniqlash, izoh yozish va tuzatuvchi topshiriq taklif etish faoliyatlari kiritilishi lozim. Shuningdek, manbalardan foydalanish, qayta ifodalash, havola berish va SI yordamining chegaralarini anglash akademik halollikning muhim tarkibi sifatida baholanishi kerak.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini diagnostika qilishda bitta yakuniy essay yetarli emas. Kamida uch turdagi dalil kerak: final written product, revision history va reflection. Final product matn sifatini ko'rsatadi; revision history talabaning feedbackdan qanday foydalanganini ko'rsatadi; reflection esa uning o'z yozuv strategiyasini qay darajada anglaganini ko'rsatadi. Ana shu uchlik diagnostik baholashni yanada adolatli va rivojlantiruvchi qiladi.

Xulosa. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasi rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish oliy ta'limda ingliz tili o'qituvchisini tayyorlash sifatini oshirishning muhim shartidir. Tahlil shuni ko'rsatdiki, yozuv kompetensiyasi grammatik to'g'rilik, leksik resurs, coherence va cohesion, janrni anglash, argumentatsiya, akademik uslub, manbadan foydalanish, plagiatning oldini olish va AI vositalaridan mas'uliyatli foydalanish kabi komponentlardan iborat murakkab tizimdir.

Mavjud dasturlarda yozuvga ajratilgan soatlar va janrlar talabalarning yozma nutqini rivojlantirish uchun muhim poydevor yaratadi. Biroq bu imkoniyatlar samarali natija berishi uchun model matn tahlili, aniq rubrika, peer feedback, self-assessment, revision, source-use training va AI-use declaration bir-biri bilan bog'langan metodik zanjir sifatida tashkil etilishi zarur. Diagnostika jarayoni talabaning faqat xatolarini aniqlamasdan, uning yozuv strategiyasi, o'zini tahrir qilish qobiliyati va kasbiy-metodik tayyorgarligini ham ko'rsatishi kerak.

Maqolada taklif etilgan sakkiz mezonli diagnostik model, xatolar tipologiyasi va rivojlanish darajalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari yozuv kompetensiyasini izchil baholashga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu modelni real talabalar yozma ishlari korpusi asosida sinovdan o'tkazish, har bir mezon bo'yicha ballarning ishonchligini aniqlash va AI vositalari bilan ishlashga oid maxsus diagnostik topshiriqlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori. 19.05.2021.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-son qarori. 08.05.2013.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
5. Flower L., Hayes J.R. A Cognitive Process Theory of Writing // College Composition and Communication. 1981. Vol. 32, No. 4. P. 365-387.
6. Hyland K. Second Language Writing. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 299 p.
7. Ferris D.R. Response to Student Writing: Implications for Second Language Students. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2003.
8. Graham S., Perin D. Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing of Adolescents in Middle and High Schools. Washington, DC: Alliance for Excellent Education, 2007.
9. Bomer R., Land C.L., Rubin J.C., Van Dike L.M. Constructs of Teaching Writing in Research About Literacy Teacher Education // Journal of Literacy Research. 2019. Vol. 51, No. 2. P. 196-213.
10. Nagao A. A Genre-Based Approach to Writing Instruction in EFL Classroom Contexts // English Language Teaching. 2018. Vol. 11, No. 5. P. 130-147.
11. Rasuki M. Integrating a Genre-Based Approach and Task-Based Instruction in Teaching Writing Skills // Taking It to Task. 2016. Vol. 1, No. 2. P. 3-8.
12. Gusta W., Bentri A., Ridwan M. The Implementation of Assessment Portfolio in Teaching Writing at University Level // International Journal of Language Teaching and Education. 2017. Vol. 1, No. 1. P. 1-8.
13. Johio A.A., Raza S.S., Younus M., Soomro A.H. Teaching Writing Skills in University Large Classes in Pakistan: Issues, Challenges and Solutions // JEELS: Journal of English Education and Linguistics Studies. 2020. Vol. 7, No. 1. P. 25-47.
14. Tarrayo V.N., Anudin A.G., Mendoza H.B., Parungao-Callueng E.S. Challenges and Opportunities in Teaching Writing Online Amidst the Pandemic: Voices from English Language Teachers in Philippine Universities // Australian Journal of Teacher Education. 2022. Vol. 47, No. 4. P. 74-90.
15. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
16. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S., Bannert M., Dementieva D., Fischer F. et al. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education // Learning and Individual Differences. 2023. Vol. 103. Article 102274.
17. Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti. "O'qish va yozuv amaliyoti" fani o'quv dasturi. 1-kurslar uchun. Namangan, 2025.
18. Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti. "O'qish va yozuv amaliyoti" fani o'quv dasturi. 3-semestr uchun. Namangan, 2025.
19. Namangan davlat pedagogika instituti. "O'qish va yozuv amaliyoti" fani o'quv dasturi. Namangan, 2025.
20. Qo'qon davlat universiteti. "O'qish va yozuv amaliyoti" fani sillabus. Qo'qon, 2025.